YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLI GI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	



SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIYAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI

Abdiyev Otabek Botiraliyevich

University of Management and Future Technologies

"Raqamli iqtisodiyot" kafedrası magistri

ORCID: 0009-0002-7650-7134

abdiyevotabek1985@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarish jarayonidagi o'rni va ahamiyati xalqaro hamda milliy amaliyot misolida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda moliyaviy instrumentlar riskini baholashda qo'llanilayotgan sun'iy intellekt modellarining amaliy samaradorligi, jumladan, mashinaviy o'rganish, neyron tarmoqlar va prognozlash algoritmlarining risklarni aniqlashdagi ustunliklari ochib beriladi. Shuningdek, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlarida yetakchi moliya institutlari tomonidan sun'iy intellekt asosida risklarni boshqarish tajribalari tizimli ravishda ko'rib chiqiladi. Maqolaning amaliy qismida O'zbekiston bank tizimi misolida, xususan, Ipoteka bank faoliyati asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali kredit va moliyaviy risklarni kamaytirish imkoniyatlari, ularning iqtisodiy samaradorligi va natijadorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni oldindan aniqlash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, moliyaviy risklar, risklarni boshqarish, moliyaviy instrumentlar, mashinaviy o'rganish, bank tizimi, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role and significance of artificial intelligence technologies in financial risk management based on international and national practices. The study examines the practical application of artificial intelligence models in assessing financial instrument risks, highlighting the advantages of machine learning algorithms and neural networks in risk prediction and decision-making processes. Furthermore, the experience of international financial institutions and developed countries, including the United States, the European Union, and Asian countries, in utilizing artificial intelligence for financial risk management is systematically reviewed. The practical section of the article presents an economic analysis of artificial intelligence-based risk management in Uzbekistan's banking sector, using the example of Ipoteka Bank. The research findings demonstrate that the implementation of artificial intelligence technologies enhances financial stability, improves risk identification accuracy, and increases the overall efficiency of risk management systems.

Key words: artificial intelligence, financial risks, risk management, financial instruments, machine learning, banking sector, economic efficiency.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль и значение технологий искусственного интеллекта в системе управления финансовыми рисками на основе международной и национальной практики. В исследовании рассматриваются практические аспекты применения моделей искусственного интеллекта при оценке рисков финансовых инструментов, а также преимущества методов машинного обучения и нейронных сетей в прогнозировании и минимизации рисков. Особое внимание уделяется опыту международных финансовых институтов и развитых стран, включая США, страны Европейского союза и государства Азии, где искусственный интеллект широко используется в управлении финансовыми рисками. В практической части статьи на примере банковской системы Узбекистана, в частности Ипотека банка, проводится экономический анализ эффективности внедрения технологий искусственного интеллекта в процессы управления кредитными и финансовыми рисками. Полученные результаты подтверждают, что использование искусственного интеллекта способствует повышению устойчивости финансовых институтов и эффективности системы риск-менеджмента.

Ключевые слова: искусственный интеллект, финансовые риски, управление рисками, финансовые инструменты, машинное обучение, банковская система, экономическая эффективность.



KIRISH

So'nggi yillarda global moliya tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi yechimlarning jadal rivojlanishi moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlariga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Moliyaviy bozorlar hajmining kengayishi, moliyaviy instrumentlarning murakkablashuvi va ma'lumotlar oqimining keskin ortishi an'anaviy risk-menejment usullarining samaradorligini pasaytirib, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlarida yetakchi moliya institutlari kredit, bozor va operatsion risklarni boshqarishda sun'iy intellektga asoslangan modellarni keng qo'llamoqda. Mashinaviy o'rganish algoritmlari, neyron tarmoqlar va prognozlash modellaridan foydalanish risklarni oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytirib, boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini oshirmoqda. Natijada moliya institutlarining barqarorligi mustahkamlanib, risklarni minimallashtirishda yuqori samaradorlikka erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, bank tizimini isloh qilishga qaratilgan Prezident farmonlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorlari moliya sohasida zamonaviy raqamli yechimlarni joriy etish uchun mustahkam huquqiy va institutsional asos yaratmoqda. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar bank-moliya tizimida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Bank sektorida, ayniqsa, moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarni aniqlash va baholash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. An'anaviy statistik va ekspert baholash usullari ko'p hollarda tez o'zgaruvchan bozor sharoitida yetarli natija bermayotgani sababli, sun'iy intellekt asosidagi modellarni amaliyotga tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. O'zbekiston bank tizimi misolida, jumladan Ipoteka bank faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy risklarni boshqarish samaradorligini oshirish masalasi ilmiy tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarishdagi xalqaro va milliy amaliyotini tizimli ravishda o'rganish, moliyaviy instrumentlar riskini baholashda sun'iy intellekt modellarining amaliy samaradorligini aniqlash hamda O'zbekiston bank tizimi misolida ushbu texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari moliyaviy risk-menejment tizimini takomillashtirish va sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv yondashuvlarini kengroq joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish masalalari davlat siyosati darajasida tartibga solingan bo'lib, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari ushbu yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish hamda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli transformatsiya va bank-moliya tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi [1], [2]. Bank tizimini isloh qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan Prezident farmonlari moliyaviy risklarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligini asoslab beradi [3], [4]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga doir qarori ushbu texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga, jumladan bank sektoriga tatbiq etishning tashkiliy mexanizmlarini belgilaydi [5], [6].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida moliyaviy risklarni boshqarish masalalari asosan nazariy va institutsional yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, Sh.M. Mirziyoyev asarlarida iqtisodiy islohotlar va moliya tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlari yoritilgan [7]. I.A. Karimov tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlik va risklarni boshqarishning makroiqtisodiy jihatlarini tahlil qilingan [8]. A. To'xtasinov va B. Raximov moliyaviy risklarning turlari va ularni boshqarish mexanizmlarini tizimli ravishda yoritgan [9]. A.A. Abdurahmonov bank risklarini kamaytirishda boshqaruv mexanizmlarining rolini asoslab bergan [10], D.Sh. Xudoyberdiyev esa raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga e'tibor qaratgan [11]. Biroq mahalliy adabiyotlarda sun'iy intellekt asosida risklarni boshqarishning amaliy jihatlarini yetarli darajada yoritilmagan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarishdagi samaradorligi keng tadqiq qilingan. Basel Committee hujjatlarida kredit risklarini boshqarishning xalqaro tamoyillari belgilangan bo'lib, zamonaviy analitik texnologiyalar muhim omil sifatida qaraladi [12]. McKinsey & Company tadqiqotlarida sun'iy intellekt risklarni boshqarish samaradorligini sezilarli oshirishi asoslab berilgan [13]. Khandani, Kim va Lo tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mashinaviy o'rganish algoritmlarining kredit risklarini baholashdagi ustunliklari empirik tahlil asosida isbotlangan [14]. Goodfellow, Bengio va Courville



hamda Bishop asarlarida sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish modellarining nazariy asoslari yoritilgan [15], [16]. OECD va Jahon banki hisobotlarida esa sun'iy intellektning moliya sektoridagi imkoniyatlari va xatarlariga alohida e'tibor qaratilgan [17], [18].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt asosida moliyaviy risklarni boshqarish masalasi keng va chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston bank tizimi sharoitida ushbu texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu maqolaning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, Korrelyatsion-regression tahlil, prognozlash, Case-study (holat tahlili) metodi, adabiyotlar tahlili, birlamchi ma'lumotlarni to'plash hamda ekspert baholash metodlari kabi usullardan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlariga joriy etilishi bank-moliya tizimining barqarorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarni baholashda sun'iy intellektga asoslangan modellar an'anaviy statistik usullarga nisbatan yuqori aniqlik va tezkorlikni ta'minlamoqda.

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha izchil huquqiy asos shakllantirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni bank-moliya tizimini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning uzoq muddatli yo'nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmon bank tizimini isloh qilish doirasida risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmon esa moliya sektorida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zarurligini yana bir bor tasdiqladi.

Hukumat darajasida qabul qilingan hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-fevraldagi 71-son Qarori sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ularni iqtisodiyot tarmoqlariga tatbiq etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilagan. Mazkur qaror asosida bank-moliya tizimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, risklarni prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari kengaygan.

Iqtisodiy-statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro amaliyotda sun'iy intellekt asosida kredit risklarini baholash banklarning muammoli kreditlar ulushini o'rtacha 10-20 foizga qisqartirish imkonini bergan. Shuningdek, mashinaviy o'rganish modellaridan foydalanish kredit portfelini yaxshilash va risklarni erta aniqlashda sezilarli natijalar bergani kuzatildi. Xalqaro moliya institutlari tajribasiga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi risk-menejment tizimlari operatsion xarajatlarni qisqartirishga va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.¹

Milliy amaliyot doirasida olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida, xususan Ipoteka bank faoliyatida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt elementlarini joriy etish kredit risklarini baholash jarayonini soddalashtirish va tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonlar bank tizimini isloh qilish va raqamlashtirishga qaratilgan davlat strategiyalari doirasida amalga oshirilmoqda. Bank kredit portfelini tahlil qilishda sun'iy intellektga asoslangan scoring modellaridan foydalanish inson omiliga bog'liq subyektiv xatoliklarni kamaytirib, risk darajasini aniqlashda yanada obyektiv natijalar berishini ko'rsatdi.² Natijada kredit qarorlarining sifati oshib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Bugungi kunda moliyaviy risk (moliyaviy yo'qotish ehtimoli), risk-menejment (risklarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayoni), sun'iy intellekt (ma'lumotlar asosida mustaqil qaror qabul qilishga qodir algoritmlar majmui) va mashinaviy o'rganish (algoritmlarning tajriba asosida o'zini takomillashtirish qobiliyati) kabi tushunchalar moliya sektorida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu terminlar asosida shakllanayotgan zamonaviy yondashuvlar moliyaviy risklarni samarali boshqarish va bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.³

1 McKinsey & Company, 2020; World Bank, 2022

2 Xudoyberdiyev D.Sh. Raqamli iqtisodiyot va bank tizimida innovatsiyalar. - Toshkent, 2021. - 210 b.

3 Abdurahmonov A.A. Bank risklari va ularni boshqarish mexanizmlari, Basel Committee on Banking Supervision - Principles for the Management of Credit Risk



Moliyaviy risk - moliyaviy faoliyat jarayonida turli ichki va tashqi omillar ta'siri natijasida rejalashtirilgan daromad olinmasligi yoki moliyaviy yo'qotish yuzaga kelishi ehtimolidir. Moliyaviy risklar kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklar kabi turlarga bo'linadi.

Risk-menejment - moliyaviy risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni kamaytirish yoki oldini olishga qaratilgan boshqaruv jarayonlari majmuidir. Risk-menejmentning asosiy maqsadi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va yo'qotishlarni minimal darajaga tushirishdan iborat.

Sun'iy intellekt - katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida inson aql-idrokiga xos bo'lgan qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va prognozlash funksiyalarini bajarishga qodir algoritmlar va texnologiyalar majmuidir. Moliya sohasida sun'iy intellekt risklarni erta aniqlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda qo'llaniladi.

Mashinaviy o'rganish - sun'iy intellektning tarkibiy qismi bo'lib, algoritmlarning avvalgi tajriba va ma'lumotlar asosida o'zini-o'zi takomillashtirish, andozalarni aniqlash va prognoz aniqligini oshirish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu texnologiya moliyaviy risklarni baholashda model aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy instrumentlar riskini baholashda sun'iy intellekt modellarining qo'llanilishi: amaliy tajribalar

So'nggi yillarda moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarni baholash jarayonida sun'iy intellekt (SI) modellaridan foydalanish jahon moliya amaliyotida keng tarqalmoqda. An'anaviy statistik modellar cheklangan omillar asosida ishlagan bo'lsa, sun'iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi tuzilgan va tuzilmagan ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida tahlil qilish imkonini bermoqda. Bu esa kredit, bozor va operatsion risklarni yanada aniqroq baholashga xizmat qilmoqda.

Kredit risklarini baholashdagi amaliy natijalar. Xalqaro bank amaliyotida mashinaviy o'rganishga asoslangan kredit skoring modellarining joriy etilishi sezilarli ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AQSh va Yevropa banklarida sun'iy intellekt asosidagi kredit risk modellarini an'anaviy logistik regressiya usullariga nisbatan prognoz aniqligini o'rtacha 15-25 foizga oshirgan. Natijada muammoli kreditlar (NPL) ulushi 10-20 foizgacha qisqartirilgan.⁴

Masalan, mashinaviy o'rganish algoritmlari (qarorlar daraxti, random forest, neyron tarmoqlar) mijozlarning to'lov intizomi, daromad dinamikasi va kredit tarixini chuqur tahlil qilish orqali riskli kreditlarni erta bosqichda aniqlash imkonini bermoqda. Bu banklar uchun kredit portfeli sifatini yaxshilash va yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Bozor risklarini baholashdagi qo'llanilishi. Moliyaviy instrumentlar, jumladan aksiyalar, obligatsiyalar va derivativlar bilan bog'liq bozor risklarini baholashda sun'iy intellekt modellaridan foydalanish risklarni prognozlash aniqligini oshirmoqda. Xalqaro moliya institutlari tajribasiga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash modellaridan foydalanish volatillikni bashorat qilishda aniqlikni 20-30 foizga oshirgan.⁵

Shuningdek, SI modellarining real vaqt rejimida ishlashi bozor shoklari va keskin narx o'zgarishlarini tez aniqlash imkonini berib, moliyaviy instrumentlar bo'yicha risk limitlarini qayta ko'rib chiqishda muhim rol o'ynamoqda. Bu esa investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish va bozor yo'qotishlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Operatsion risklarni boshqarishdagi samaradorlik. Operatsion risklar, jumladan firibgarlik (fraud) va texnologik xatolarni aniqlashda sun'iy intellekt modellarining amaliy samaradorligi yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi fraud-detection tizimlari firibgarlik holatlarini aniqlash samaradorligini 30-40 foizga oshirgan, noto'g'ri signal berish (false positive) holatlarini esa 15-20 foizga kamaytirgan.⁶

Bu holat banklarning operatsion xarajatlarini qisqartirish va moliyaviy xavfsizlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy iqtisodiy samaradorlik. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt modellarini moliyaviy instrumentlar riskini baholash jarayoniga joriy etish natijasida:

- risklarni aniqlash tezligi 2-3 barobar oshgan;
- kredit va bozor yo'qotishlari 10-25 foizga qisqargan;
- risk-menejment bilan bog'liq operatsion xarajatlar 15-30 foizgacha kamaygan.

4 Basel Committee on Banking Supervision - Principles for the Management of Credit Risk, 2019, Khandani A.E., Kim A.J., Lo A.W. - Consumer credit-risk models via machine-learning algorithms, 2010.

5 McKinsey & Company. Artificial Intelligence in Risk Management. - New York, 2020. OECD. Artificial Intelligence in Finance: Opportunities and Challenges. - Paris, 2021.

6 Xudoyberdiyev D.Sh. Raqamli iqtisodiyot va bank tizimida innovatsiyalar - raqamli va AI texnologiyalarning bank tizimidagi roli. McKinsey & Company. Artificial Intelligence in Risk Management - AI asosidagi fraud-detection tizimlarining 30-40 % samaradorlik ko'rsatkichlari.



1-jadval. Sun'iy intellekt modellarining moliyaviy risklarni baholashdagi samaradorligi


Risk turi	Qo'llanilgan SI modeli	An'anaviy usulga nisbatan natija	Statistik ko'rsatkich
Kredit riski	Machine Learning (Random Forest, NN)	Prognoz aniqligi oshgan	+15-25 %
Kredit riski	AI-skoring tizimi	Muammoli kreditlar (NPL) kamaygan	-10-20 %
Bozor riski	Deep Learning (LSTM)	Volatillik prognozi aniqligi	+20-30 %
Bozor riski	AI risk-monitoring	Keskin bozor shoklarini aniqlash tezligi	2 barobar tez
Operatsion riski	AI Fraud Detection	Firibgarlikni aniqlash	+30-40 %
Operatsion riski	AI monitoring	Noto'g'ri signal (false positive)	-15-20 %
Umumiy risk-menejment	AI avtomatlashtirish	Operatsion xarajatlار	-15-30 %

Tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy statistik va ekspert baholash usullari murakkab, tez o'zgaruvchan moliyaviy muhitda yetarli darajada moslashuvchanlikni ta'minlay olmaydi. Sun'iy intellekt modellarining ustunligi esa katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, yashirin bog'liqliklarni aniqlash va prognozlarni dinamik yangilab borish imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Kredit risklarida AI-skoring tizimlari qarz oluvchilarning xatti-harakatlarini chuqurroq tahlil qilib, kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bozor risklarida esa LSTM kabi chuqur o'rganish modellarining vaqt qatorlari bilan ishlashdagi afzalligi bozor volatilligini aniqroq prognozlash imkonini bermogda. Operatsion risklar kesimida firibgarlikni aniqlash va noto'g'ri signallarni kamaytirish moliyaviy institutlarning ichki nazorat tizimini mustahkamlab, resurslardan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining risk-menejmentga integratsiyasi moliya bozorida barqarorlik, tejamkorlik va tezkorlikni oshiruvchi strategik omil hisoblanadi. Shu bois, kelgusida SI modellarini joriy etish va takomillashtirish moliyaviy tashkilotlar uchun muhim ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

Sun'iy intellekt modellarining risklarni baholashdagi samaradorligi



1-diagramma. Sun'iy intellekt modellarining risklarni baholashdagi samaradorligi

Bunda, sun'iy intellekt modellarining eng yuqori samaradorligi operatsion risklar yo'nalishida kuzatiladi. Xususan, firibgarlik holatlarini aniqlashda AI tizimlari samaradorligi 40 foizgacha oshgani diagrammada yaqqol namoyon bo'lgan.



Kredit risklari bo'yicha sun'iy intellekt modellarining qo'llanilishi risklarni baholash aniqligini 25 foizgacha⁷ oshirgan bo'lib, bu kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Bozor risklari segmentida esa AI modellarining volatillikni prognozlashdagi ustunligi 30 foiz⁸ atrofida bo'lib, bu bozor tebranishlarini oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, diagrammada xarajatlar dinamikasi bo'yicha sun'iy intellekt joriy etilgandan so'ng 20 foizgacha pasayish tendensiyasi⁹ kuzatilgani aks etgan. Bu holat risk-menejment jarayonlarining avtomatlashtirilishi operatsion xarajatlarni qisqartirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Sun'iy intellekt modellarini qo'llashdagi muammolar va yechimlar

Muammolar:

1. Ma'lumotlar sifati pastligi. Sun'iy intellekt modellarining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar sifatiga bog'liq bo'lib, noto'liq yoki xatoli ma'lumotlar noto'g'ri risk bahosiga olib keladi.

2. Model shaffofligining yetishmasligi. Ko'plab sun'iy intellekt modellarining ishlash mexanizmi murakkab bo'lib, qabul qilingan qarorlarni izohlash qiyinlashadi.

3. Axborot xavfsizligi va maxfiylik muammolari. Moliyaviy ma'lumotlarning katta hajmda qayta ishlanishi kiberxavflarni kuchaytiradi.

4. Malakali mutaxassislar yetishmasligi. Sun'iy intellekt va moliya sohasini birlashtirgan kadrlar tanqisligi texnologiyalarni joriy etishni sekinlashtiradi.

5. Normativ-huquqiy cheklovlar. Sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi aniq standartlar yetarli darajada shakllanmagan.

Yechimlar:

1. Ma'lumotlar sifatini oshirish. Ma'lumotlarni tozalash, standartlashtirish va integratsiya qilish orqali modellar aniqligini oshirish.

2. Izohlanadigan AI (Explainable AI) joriy etish. Qaror qabul qilish jarayonini tushuntirib bera oladigan modellardan foydalanish.

3. Axborot xavfsizligini kuchaytirish. Shifrlash, kiberxavfsizlik protokollari va xavfsizlik auditlarini joriy etish.

4. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish. Moliya va sun'iy intellekt bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.

5. Huquqiy bazani takomillashtirish. Sun'iy intellektdan foydalanishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Moliyaviy instrumentlar riskini baholashda sun'iy intellekt modellarining qo'llanilish istiqbollari

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarni baholash va boshqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirish imkonini bermoqda. Kelgusida sun'iy intellekt modellarining moliya sektorida qo'llanilishi yanada kengayib, risk-menejment tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Birinchidan, real vaqt rejimida risklarni baholash imkoniyatlarining kengayishi istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt modellarining katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish qobiliyati moliyaviy instrumentlar bo'yicha risklarni bozor sharoitidagi o'zgarishlarga mos holda baholash imkonini beradi. Bu esa risklarni oldindan aniqlash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, prognozlash aniqligining oshishi sun'iy intellekt modellarining muhim istiqbollaridan biridir. Mashinaviy o'rganish va chuqur o'rganish algoritmlari yordamida moliyaviy instrumentlar risklarining ehtimoliy holatlarini an'anaviy usullarga nisbatan yanada aniq bashorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada kredit, bozor va likvidlik risklarini baholashda xatoliklar sezilarli darajada kamayadi.

Uchinchidan, risk-menejment jarayonlarining avtomatlashtirilishi sun'iy intellekt texnologiyalarining amaliy samaradorligini oshiradi. Risklarni aniqlash, monitoring qilish va hisobotlarni tayyorlash jarayonlarining avtomatlashtirilishi inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirib, operatsion xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, murakkab moliyaviy instrumentlar risklarini baholash imkoniyatlarining kengayishi kutilmoqda. Derivativlar, murakkab investitsiya portfellari va yangi moliyaviy mahsulotlar bilan bog'liq risklarni sun'iy intellekt modellaridan foydalangan holda yanada chuqur tahlil qilish mumkin bo'ladi. Bu esa investitsiya qarorlarining sifatini oshiradi.

Beshinchidan, milliy bank tizimlarida raqamli transformatsiyani jadallashtirish sun'iy intellekt modellarining

7 To'xtasinov A., Raximov B. Moliyaviy risklarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 312 b., Khandani A.E., Kim A.J., Lo A.W. Consumer credit-risk models via machine-learning algorithms // Journal of Banking & Finance. - 2010.

8 McKinsey & Company. Artificial Intelligence in Risk Management. - New York: McKinsey & Company, 2020., OECD. Artificial Intelligence in Finance: Opportunities and Challenges. - Paris: OECD, 2021

9 McKinsey & Company. Artificial Intelligence in Risk Management. - New York, 2020., OECD. Artificial Intelligence in Finance: Opportunities and Challenges. - Paris, 2021., To'xtasinov A., Raximov B. Moliyaviy risklarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti. □ Toshkent, 2020.



qo'llanilish istiqbolini kuchaytiradi. Xususan, O'zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha davlat dasturlari sun'iy intellekt asosidagi risk-menejment tizimlarini amaliyotga tatbiq etish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy instrumentlar riskini baholashda sun'iy intellekt modellarining qo'llanilishi risklarni an'anaviy usullarga nisbatan tezroq va aniqroq aniqlash imkonini beradi. Ushbu modellar katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, risklarning yashirin omillarini ochib berishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlar kredit, bozor va operatsion risklarni oldindan bashorat qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, mashinaviy o'rganish modellaridan foydalanish muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilashga olib kelmoqda. Shuningdek, bozor risklarini baholashda sun'iy intellekt volatillikni prognozlash aniqligini oshirib, investitsiya yo'qotishlarini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Operatsion risklar bo'yicha esa firibgarlik holatlarini erta aniqlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda.

Natijada risk-menejment jarayonlari avtomatlashtirilib, inson omiliga bog'liq xatoliklar kamaymoqda. Sun'iy intellekt modellarining joriy etilishi boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi va ularning tezkorligini ta'minlaydi. Amaliy natijalar bank-moliya institutlarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy risklarni boshqarishda yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risida" gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6079-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-fevraldagi 71-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bank-moliya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 464 b.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. - 56 b.
9. To'xtasinov A., Raximov B. Moliyaviy risklarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 312 b.
10. Abdurahmonov A.A. Bank risklari va ularni boshqarish mexanizmlari. - Toshkent: Fan, 2019. - 280 b.
11. Xudoyberdiyev D.Sh. Raqamli iqtisodiyot va bank tizimida innovatsiyalar. - Toshkent, 2021. - 210 b.
12. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. - Basel: BIS, 2019.
13. McKinsey & Company. Artificial Intelligence in Risk Management. - New York, 2020.
14. Khandani A.E., Kim A.J., Lo A.W. Consumer credit-risk models via machine-learning algorithms. - Journal of Banking & Finance, 2010.
15. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. - MIT Press, 2016. - 800 p.
16. Bishop C.M. Pattern Recognition and Machine Learning. - Springer, 2006. - 738 p.
17. OECD. Artificial Intelligence in Finance: Opportunities and Challenges. - Paris, 2021.
18. World Bank. Financial Consumer Protection and AI Applications. - Washington DC, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
